



PERSIAN BORROWINGS IN THE POETRY OF ABDULLA QODIRIY

Zulaykho Meliboyeva

2nd-year student of the Classical Persian-English group

Institute of Oriental Languages and Literature

Tashkent State Institute of Oriental Studies

E-mail: zulayhomeliboyeva@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

O. Turdiyeva

Doctor of Philology

Associate Professor of "Iranian and Afghan Studies"

Tashkent State University of Oriental Studies School

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Abdulla Qodiriy, poetry, prose, Persian language, borrowings.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article is dedicated to the study of Persian borrowings in the poetry of the famous Uzbek writer, translator, and novelist Abdulla Qodiriy. It analyzes the Persian borrowings in the poet's work, examining the integration of the Persian language in each section of his poetry.

ABDULLA QODIRIY SHE'RIYATIDA FORSIY O'ZLASHMALAR

Zulayxo Meliboyeva

2-kurs mumtoz fors-ingliz guruhi talabasi

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: zulayhomeliboyeva@gmail.com

Tashkent, O'zbekiston

O. Turdiyeva

filologiya fanlari doktori

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti

TDShU

Toshkent, O`zbekiston

МАQOLA НАQIDA

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, she’riyat, nasr, fors tili, o‘zlashmalar.

Annotatsiya: Ushbu maqola taniqli o‘zbek adibi, tarjimon va romannavis Abdulla Qodiriy she’riyatidagi forsiy o‘zlashmalar tadqiqiga bag‘ishlanadi. Unda adibning she’riyatidagi fors tilidan kirgan o‘zlashmalar har bir she’r kesimida alohida-alohida ochib beriladi.

ПЕРСИДСКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В ПОЭЗИИ АБДУЛЛЫ КОДИРИЯ

Зулайхо Мелибоеева

Ташкентский государственный институт востоковедения

Институт восточных языков и литературы

Студентка 2-го курса группы классического персидско-английского языка

E-mail: zulayhomeliboyeva@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

O. Турдиева

доктор филологических наук

доцент кафедры "Ирановедения и афганистановедения"

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Абдулла Кодирий, поэзия, проза, персидский язык, заимствования.

Аннотация: Эта статья посвящена исследованию персидских заимствований в поэзии известного узбекского писателя, переводчика и романиста Абдуллы Кодирия. В ней анализируются персидские заимствования в произведениях автора, и каждое заимствование из персидского языка раскрывается в отдельности в каждом стихотворении.

Abdulla Qodiriy nasri haqida ko‘p va xo‘b yozilgan. Lekin uning shoir sifatidagi salohiyati tadqiq etilgan emas. To‘g‘ri, Qodiriy turkum she’rlar, dostonlar yoki she’riy to‘plamlar yaratmagan. Biroq, o‘rgansa, o‘qisa arziydigan she’riy meros qoldirgani aniq. Yaqingacha uning bor-yo‘g‘i “To‘y”, “Ahvolimiz” va “Millatimga bir qaror” kabi uch she’rigina tilga olinardi. Ammo 1993-yilga kelib, adabiyotshunos olim Rustam Tojiboev tomonidan shoirning to‘rtinchi she’ri- “Fikr aylag‘il” e’lon qilindi.

Abdulla Qodiriy she’rlarini ikki toifaga ajratish mumkin. Ulardan birinchisi – “To‘y”, “Ahvolimiz”, “Millatimga bir qaror” va “Fikr aylag‘il” kabi mustaqil she’riy asarlar bo‘lsa, ikkinchisi – asosan “O’tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” va “Obid ketmon” kabi epik asarlari tarkibidagi nazm namunalaridir.

Abdulla Qodiriyning birinchi she’ri “To‘y” deb nomlanadi, u ilk marotaba 1915 - yil 20-martda “Sadoyi Turkiston” gazetasining 64 – sonida nashr etilgan. Bu she’r o‘sha zamon talabiga

muvofiq hajv yo‘nalishida yozilgan, ammo she’rda xalqning nochor ahvoli va o‘sha davr qiyinchiliklari yoritib berilgan.

*Qildi bu vaqt bizda javlon to 'y,
Oqchasi yo 'qni etdi hayron to 'y.
Bir-biridan oshurdilar to 'yni,
Topdi ravnaq, hayratila boyon to 'y.
Besh kun to 'yni so 'ngidin
Ketibon mulklar bois fig 'on to 'y.
Boyon to 'yig 'a yerlilar qarab
Etdi sarf toki tandagi jon to 'y.
Ey g 'aniylarimiz, ey faqirlarimiz,
Amr etubdurmi bizg 'a Qur 'on to 'y.
Mundayin ishlar shar 'imizda yo 'q
Kori maj 'us, kori shayton to 'y.
Ishlamas shundai ahllik kishi,
Yo 'lamas aslo ahli vijdon to 'y.
O 'tsa to 'y birla yozu qishimiz,
Aylagay bizni yerg 'a yakson to 'y.
Kelingiz do 'stlar, din qarindoshlar,
Tashlasun bo 'lsa gar musulmon to 'y.*

She'rda bir qancha forsiy o'zlashma so'zlardan foydalanilgan bo'lib, quyida ular jadval tariqasida keltirilgan:

No	Forscha shakli	Forscha transkripsiya	O'zbekcha ma'nosi
1	رونق	rownaq ¹	Yorug', nurli; aniq
2	فغان	faqAn	Dod- voy, faryod
3	تن	Tan	Gavda, tana
4	جان	jAn	Ruh; hayot; kuch-quvvat
5	کار	kAr	Ish, mehnat
6	یکسان	yeksAn	Teng, bir xil, o'xshash
7	دوسـت	dust	O'rtoq, yor, oshna
8	گـر-اـگـر	-agar	Bog'lovchi, "agar" so'zining qisqargan shakli

¹ Ushbu maqoladagi transkripsiya Abidis Dictionary saytidagi transkripsiyaga muvofiq berildi.

Yuqoridagi jadvaldan ma'lum bo'ladiki, shoir "To'y" she'rida 8 ta forsiy so'zdan foydalangan.

Qodiriyning keyingi she'ri "Ahvolimiz" deb nomlanadi va bu she'r ham 1915-yilda ommaga e'lon qilingan. She'rda XX asr boshlaridagi Turkiston ahlining umumiyligi, loqaydligi va buning natijasida yoshlarning giyohvand moddalarga o'rganib qolishlari mumkinligi kabi masalalar keltirib o'tilgan.

Bu she'r tarkibida 12 ta forsiy o'zlashmalar qatnashgan. So'zlardan ayrimlari bosh kelishikda, hech qanday qo'shimchalarni olmasdan kelgan bo'lsa, ayrim so'zlar o'zbek tilidagi egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qilgan holda kelgan. Jadvalda esa ular hech qanday qo'shimchasiz bosh kelishikda keltirildi:

No	Forscha shakli	Forscha transkripsiya	O'zbekcha ma'nosi
1	كور	kur	Ko'rmaydigan odam
2	جای	jAy	Makon, manzil
3	پول	pul	Pul, aqcha
4	خدا	xodA	Iloh, Xudo
5	کار	kAr	Ish, mehnat
6	بیدانه	bidAne	Urug'siz, danaksiz
7	بچه	baCCe	Odam bolasi
8	کاکل	kAkol	Bir tutam soch, peshona gajak
9	ناگهان	nAgahAn	To'satdan, birdan
10	توفنگ	Tofang	Miltiq
11	هر	Har	Har, har qanday
12	بلکى	Balki	Bog'lovchi, ehtimol; ammo

Shoirning keyingi she'ri "Millatimga bir qaror" deb nomlanadi. Bu she'rning qachon yozilgani va qayerda e'lon qilingani ma'lum emas. Shoir bu she'rida xalqiga o'z tilaklarini bildirgan, qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida va u ishlar bajarilmasa qanday ishlar bo'lishi mumkinligi haqida aytib o'tgan. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, eng ko'p forsiy o'zlashmalar qatnashgan she'ri ham aynan shu she'r hisoblanadi.

No	Forscha shakli	Forscha transkripsiya	O'zbekcha ma'nosi
1	پشيمان	paSimAn	O'kinuvchi, tavba qiluvchi

2	ҳеме	Hame	Hamma, barcha
3	сабзه	sabze	Yashil o't, ko'kat
4	надан	nAdAn	Bilmaydigan, xabarsiz
5	ҷаҳан	jahAn	Dunyo, olam
6	зистан	zemestAn	Qish
7	бехар	bahAr	Ko'klam fasli
8	هزар	hazAr	Son: ming
9	йар	yAr	Do'st
10	бичаре	biCAre	Chorasiz, muhtoj
11	бикис	bikas	Kimsasiz, tanho
12	ғозар	gozar	O'tish joyi, ko'cha
13	ҳамисе	hamiSe	Doimo, hamma vaqt
14	(бу(и))	bu(y)	Hid, is
15	мешк	mask	Xushbo'y isli narsa
16	шад	Sad	Xursand, shodon
17	шримасар	SarmsAr	Izza bo'lgan, sharmanda bo'lgan
18	пхлан	pahlavAn	Qahramon, botir
19	намдар	nAmdAr	Mashhur, shuhrat qozongan
20	бекар	bekAr	Ishga, ish bilan

Qodiriyning yana bir she'ri - "Fikr aylag'il" 1915-yilda "Oina" jurnalining 12-sonida e'lon qilingan. Ushbu she'rda 12 ta forsiy o'zlashma aniqlandi:

No	Forscha shakli	Forscha transkripsiya	O'zbekcha ma'nosi
1	ҷӣани	CapAni	Juldur, uvada kiyangan
2	дешман	doSman	Muxolif, yov
3	ҳр	Har	Har, har qanday
4	тн	Tan	Gavda, tana
5	жан	jAn	Ruh, hayot
6	пул	Pul	Pul, aqcha
7	зен	Zan	Ayol, xotin

8	زېب گرдан	zib gardAn	Bo'yinga taqiladigan bezak
9	نادان	nAdAn	Bilmaydigan, ilmsiz
10	مشت	moSt	Mushtum; hovuch
11	سمن	saman	Oq gulli xushbo'y o'simlik
12	نرڈ	nazd	Yoni, yaqin atrofi

Xulosa qilish mumkinki, Abdulla Qodiriy o'zining to'rt she'rida forsiy so'zlarni qo'llagan va bu o'zlashmalar o'zbek tilida egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qilgan. Forsiy so'zlar o'zbek tiliga kirib, tilning grammatik jihatdan boyishiga olib kelgan. Bu jarayon, o'zbek tilining leksik va morfologik strukturasi uchun muhim hisoblanadi rol o'ynagan. Abdulla Qodiriy tomonidan forsiy so'zlarning qo'llanilishi, o'zbek tilining grammatika va leksikasining boyishida o'ziga xos ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2003 yil 47-soni.
2. Абдулла Қодирий. Танланган асарлар. "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2014.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашгриёти. Тошкент 2006.